

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.FM.01.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

OTOJANOVA NILUFAR BAXTIYAROVNA

**GALAKTIKALAR BOY TO‘DALARINING FIZIK XUSUSIYATLARI:
KUZATUV MA‘LUMOTLARI TAXLILI VA MODELLASHTIRISH
NATIJALARI**

01. 03. 02 – Kosmos fizikasi va astrofizika

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi****Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-
математическим наукам****Content of the dissertation abstract of the doctor philosophy (PhD) on physical and
mathematical sciences****Otojanova Nilufar Baxtiyarovna**

Galaktikalar boy to‘dalarining fizik xususiyatlari: kuzatuv ma’lumotlari taxlili
va modellashtirish natijalari 3

Отожанова Нилуфар Бахтияровна

Физические свойства богатых скоплений галактик: анализ данных
наблюдений и результаты моделирования 19

Otojanova Nilufar Bakhtiyarovna

Physical properties of rich galaxy clusters: analysis of observational data and
modeling results 35

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 39

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.FM.01.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

OTOJANOVA NILUFAR BAXTIYAROVNA

**GALAKTIKALAR BOY TO‘DALARINING FIZIK XUSUSIYATLARI:
KUZATUV MA‘LUMOTLARI TAXLILI VA MODELLASHTIRISH
NATIJALARI**

01. 03. 02 – Kosmos fizikasi va astrofizika

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PHD/FM1361 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Kengashning veb-sahifasida (www.ik-fizmat.nuu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kutlimuratov Sardor Sharipbaevich
pedagogika fanlari falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Rayimbaev Djavlonbek Rajapbaevich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Burxonov Otabek Anvarjonovich
fizika-matematika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.FM.01.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «21» 04 soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4 – uy, Tel.: (+99871) 227-12-24; faks (+99871)246-53-21, 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (61 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4 – uy, Tel.: (+99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «3» 04 kuni tarqatildi.

(2026 yil «3» 04 dagi 4 raqamli reestr bayonnomasi)



[Handwritten signature]

S.N. Nuritdinov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash raisi,
fizika-matematika fanlari doktori, professor

[Handwritten signature]

F.O'. Botirov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash kotibi,
fizika-matematika fanlari falsafa doktori

[Handwritten signature]

I.U. Tadjibayev

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy Kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
fizika-matematika fanlari doktori, professor

KIRISH

(doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda galaktikalar boy to‘dolari Koinotning noyob ob’ektlaridan biri sifatida qaraladi va ushbu ob’ektlarga Koinotning katta masshtabdagi tuzilishi, modda tarkibi va evolyusiyasini o‘rganish kabi masalalarni hal qilish vositasi sifatida alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda galaktikalar boy to‘dalarini tadqiq qilishga qaratilgan xalqaro astronomik dasturlar jadal rivojlanib bormoqda hamda kosmik teleskoplar va keng ko‘lamli kuzatuv ma’lumotlari natijasida ularning zamonaviy kataloglari yaratilmoqda, aniqlangan galaktikalar boy to‘dolari soni oxirgi yillarda sezilarli darajada ortib, hozirgi kunda 168000 dan ortiq bunday to‘dalar ma’lum, ularning soni har yili taxminan 4000 tagacha ortib bormoqda. Yangi kataloglardagi boy to‘dalarning katta qismi avval ma’lum bo‘lmagan ob’ektlar hisoblanadi. Bu borada, galaktikalar boy to‘dalarining fizikasini kuzatuvlar orqali tushuntirish, ularning kosmologik kelib chiqishining muqobil senariylarini solishtirish, evolyusiyasini sonli modellashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jahonda yangi galaktikalar to‘dalarini izlash, ularni fotometriya qilish, qoramtir modda ulushini aniqlash, kataloglarini yaratish bo‘yicha muhim ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, galaktikalar boy to‘dalarini kosmik teleskoplarda kuzatish, ular orqali Koinotning yirik masshtabdagi tuzilishini aniqlash, to‘dalardagi yuqori energiyali fizik jarayonlarni kuzatish, qoramtir moddani o‘rganish, kosmologik parametrlarni aniqlash, to‘dalar tezligini topish, to‘da markazida qora tuynuk mavjudligini aniqlash, to‘dalarni maxsus sinflarga ajratish, yaqin masofadagi to‘dalarni tadqiq qilish, dinamik massasini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, galaktikalar boy to‘dolari bo‘yicha umumlashtirilgan maxsus kataloglarni yaratish, ularning statistik tahlillarni amalga oshirish, asosiy fizik parametrlarini o‘rganish, ular orasida empirik bog‘lanishlarini aniqlash hamda dinamik evolyusiyasini modellashtirish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda fundamental fanlar, jumladan zamonaviy astrofizikaning ustuvor yo‘nalishlarini rivojlantirish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026-yillarda yangi O‘zbekistonni rivojlantirishning taraqqiyot strategiyasi¹ bilan bog‘liq fundamental tadqiqotlar yo‘nalishlarida mamlakatimiz ilm-fanini rivojlantirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, kosmik tadqiqotlar va texnologiyalarni rivojlantirish, xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish, kuzatuv ma’lumotlarini qayta ishlashning yangi usullarini tadbiq qilish hamda mavjudlarini takomillashtirish, jumladan, galaktikalar boy to‘dolari bo‘yicha kuzatuv ma’lumotlari bankini yaratish, kuzatuv ma’lumotlarini tahlil

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

qilish orqali ko‘plab noyob bog‘lanishlarni aniqlash, kuzatuv materiallari asosida to‘dalarning dinamik va evolyusion parametrlarini aniqlash, ularning evolyusion bosqichlarini modellashtirish muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktyabrdagi “Fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi “2030-yilgacha ilm-fanni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 23 noyabrdagi “Kosmik tarmoqni yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-429-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining II. "Energetika, energiya va resurslarni tejash" ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirgi vaqtda dunyoning ko‘pgina yetakchi olimlari galaktikalar to‘dalarini ochish, ularni kuzatish, fotometrik tadqiqotlar olib borish, to‘dalar fizikasi va o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish, bu tizimlarni modellashtirish bilan shug‘ullanmoqdalar. Masalan, amerikalik (Eybell, Korvin, Olovin, Gorenshteyn, Taker, Bautz, Morgan), nemis (Kluge, Bender), chililik (Piraino-Cerda, Jaffe, Lourenco, Salkars, Pallero), koreys (Kim, Shin), meksikalik (Bravo-Alfaro), rus (Kopylov, Kopylova), xitoylik (Ven, Xan, Lyu) va boshqa olimlardir.

Galaktika to‘dalarining 2712 ta ob’ektidan iborat katalogi yaratilgan. Katalogdan yagona statistik namunaga ega 1682 ta ob’ekt tanlab olingan (Eybell). Galaktikalar boy to‘dalari sekundiga bir necha kilometr tezlikda harakatlanishi aniqlangan, radiusi to‘da radiusiga deyarli teng bo‘lgan qora tuynuk mavjudligi qayd etilgan (Gorenstein, Tucker). Galaktikalar to‘dalarini sinflashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan va ularning turli sinflarga bo‘linishi ko‘rsatilgan (Eybell, Baus, Morgan), galaktikalar to‘dalari alohida o‘rganilgan, kichik masofadagi galaktikalar to‘dalari ham tadqiq etilgan va yorug‘lik tezligidan foydalanib ularning dinamik massalari aniqlangan (Kopylov, Kopylova). Biroq, galaktikalar to‘dalari uchun barcha kuzatuv ma’lumotlari to‘planmagan va ularning kuzatuv ma’lumotlari yetarli darajada statistik tahlil qilinmagan.

O‘zbekistonda galaktikalar va ularning to‘dalarining keng ko‘lamli muammolari bo‘yicha tizimli kuzatishlar natijalari O‘zbekiston Milliy universiteti professori S.Nurritdinov rahbarligida uning shogirglari tomonidan tahlil etilgan. Ushbu tadqiqotlar natijasida ushbu ob’ektlarning ma’lumotlar bazasi qisman shakllantirildi, galaktikalar va ularning to‘dalari, galaktikalar turlari bo‘yicha ma’lumotlarning statistik tahlili orqali katalog tuzilgan hamda kuzatuv va nazariy sirtiy zichlikni taqqoslash yo‘li bilan 5 dan ortiq galaktikalardan iborat to‘dalar uchun tezliklar anizotropiya parametrining qiymati aniqlangan. Biroq, galaktikalar

boy to‘dalari uchun kuzatuv ma’lumotlarini to‘plash asosida to‘liq katalog tuzilmagan va kuzatuv ma’lumotlarining statistik tahlili va anizotropiya parametri, sirtiy zichlikni aniqlash usullari va sirtiy zichlik asosida ularning markaziga nisbatan konsentratsiya parametri aniqlanmagan, bular esa ularning kelib chiqishini kengroq tushunish uchun muhim ma’lumotdir.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya olib borilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot universitetning ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, “Galaktikalar va ular podsystemalari kuzatuv ma’lumotlari taxlili hamda ularning evolyusiyasini sonli modellashtirish” mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi galaktikalar boy to‘dalari bo‘yicha kuzatuv ma’lumotlari bankini yaratish, ular fizik parametrlari orasidagi empirik bog‘liqliklarni izlash va galaktika to‘dalari misolida sferik sistemalarning dinamik evolyusiyasini modellashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

galaktikalar boy to‘dalarining kuzatuv ma’lumotlarini tahlil qilish asosida ularning umumlashtirilgan yangi maxsus katalogini tuzish;

galaktikalar boy to‘dalarining umumlashtirilgan katalogini statistik tahlillarini amalga oshirish;

galaktikalar boy to‘dalarining fizik parametrlari orasida bog‘lanish diagrammalarini tuzish va asosiy fizik parametrlari orasidagi empirik bog‘lanishlarni izlash;

galaktikalar to‘dalarining dinamik evolyusiyasini modellashtirish fonida ularning masshtabli tuzilmalari kelib chiqishi nazariyalarini tushuntirish.

Tadqiqot ob’ekti galaktikalar boy to‘dalari va ularning tizimlari kabilar hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti galaktika boy to‘dalari fizik parametrlari orasidagi statistik va empirik formulalari, sferik tizimlarning asosiy fizik xususiyatlari, kuzatuv ma’lumotlari bo‘yicha sferik tizimlarni modellashtirish.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida sonli usullar, statistik bog‘liqliklarni topish uchun eng kichik kvadratlar usuli, simpleks usuli, differensial tenglamalar sistemasini yechishning analitik va anizotropiya parametrini hisoblash uchun χ^2 usullari qo‘llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk marotaba galaktikalar juda boy to‘dalari uchun astrofizik kuzatuv ma’lumotlarini tahlil qilish hamda mavjud kataloglar ma’lumotlari asosida 213 ta obyektidan iborat maxsus katalog tuzilgan;

ilk bor galaktikalar boy to‘dalarining markaziga nisbatan sirtiy zichliklari aniqlanib, ular orqali to‘daning markaziga nisbatan konsentratsiya darajasi qiymatlari aniqlangan;

ilk bor galaktikalar boy to‘dalari uchun ularning massasi va boylik darajasi qiymatlari orasida empirik bog‘liqlik topilgan;

ilk marta 40 ta galaktikalar boy to‘dolari uchun kuzatuv ma’lumotlari asosida tezliklar anizotropiya parametrining qiymatlari va ularning 25 foizi sferik taqsimotga ega ekanligi aniqlangan;

ilk bor ikkita model asosida galaktikalar boy to‘dalarining dinamik evolyusiyasi modellashtirilib, uning markaziy (yadro) qismi dastlab ixcham va kuchli konsentratsiyaga ega bo‘lishi, keyinchalik cho‘zilgan shaklni olishi, galo qismi esa vaqt o‘tishi bilan uzluksiz ravishda kengayishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

galaktikalar boy to‘dalariga oid 213 ta ob’ektdan iborat katalog Koinotning yirik masshtabdagi tuzilishini hamda kosmologik parametrlarini (masalan, modda zichligi, qoramtir modda ulushi) aniqlash imkonini bergan;

sirtiy zichlik asosida hisoblangan konsentratsiya parametri orqali galaktika to‘dalarining ichki tuzilishi va evolyutsion bosqichi o‘rganilgan hamda dinamik beqarorligi baholangan;

massa va boyluk daraja orasidagi empirik bog‘liqlikdan galaktika to‘dalarining massasi bevosita o‘lchanmasdan u ushbu bog‘liqlik orqali baholangan, tezliklar anizotropiya parametri esa ularning dinamik holatini o‘rganish imkonini bergan;

sonli modellashtirish natijalari galaktika to‘dalarining dinamikasi bilan bog‘liq bo‘lib, yadroning ixchamligi (kuchli konsentratsiyaga ega bo‘lishi) va galoning kengayishi to‘daning evolyusion qonuniyatlarini ochib bergan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda kuzatuv ma’lumotlari statistik tahlilining zamonaviy va aprobatsiyadan o‘tgan usullaridan, yuqori aniqlikdagi sonli hisoblash usullaridan, matematik tahlil usullaridan va matematik statistikadan foydalanilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, tuzilgan galaktikalar boy to‘dolari katalogi va uni statistik o‘rganish natijalari ushbu ob’ektlarning shakllanishi va galaktikalar to‘dalarida sodir bo‘ladigan evolyusion jarayonlarni o‘rganish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Olingan natijalarning amaliy ahamiyati shundan iboratki, ular yangi galaktikalar to‘dalarini o‘rganish va ularni tadqiq qilishda foydalaniladi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, galaktikalar boy to‘dolari katalogi va aniqlangan bog‘liqliklar va ularni hosil qilish mezonlarini Koinot tuzilishini o‘rganishga qo‘shilgan bebaho hissa deb hisoblash mumkin. Tadqiqot natijalaridan yangi galaktika to‘dalarini qidirishda va Koinotni umumiy o‘rganishda foydalanish mumkin. Ularning dinamik evolyusiyasini tahlil qilishda anizotropiya parametrining topilgan qiymatlari, boy to‘dalar katalogi, olingan empirik formulalar va galaktika to‘dalarining sonli tahlili natijalaridan foydalaniladi.

Tadqiqot natijalari joriy qilinishi. Dissertatsiya natijalari quyidagilarga joriy etilgan:

galaktikalar boy to‘dalarining statistik tahlil natijalari va topilgan empirik bog‘liqliklardan TIQXMMI Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Fundamental

va amaliy tadqiqotlar institutining ilmiy laboratoriyasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida Novikov va Torns disk modelida qora o'ralarning energiyasini o'rganishda foydalanilgan (TIQXMMI Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar institutining 2025 yil 20 iyundagi 01/25-105-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, qora o'ra yaqinidagi zarrachalar to'qnashishi mumkin bo'lgan kritik burchakning yuqori chegarasi hamda to'qnashayotgan zarrachalar energiyasining quyi chegarasi qiymatlari topilgan;

galaktikalar to'dasi markaziga nisbatan aniqlangan konsentratsiya darajasi hamda tezliklar anizotropiya parametri qiymatlaridan TIQXMMI Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar institutining ilmiy laboratoriyasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida magnitlangan zarrachalarning tashqi magnit maydondagi Bocharov-Bronnikov-Melnikov-Bekenshteyn qora o'rasi atrofidagi harakatini tekshirishda foydalanilgan (TIQXMMI Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar institutining 2025 yil 20 iyundagi 01/25-105-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, tezliklar anizotropiya parametri magnitlangan zarrachalarning tashqi magnit maydonini o'zgartirishi aniqlangan;

sonli modellashtirishdan olingan natijalardan TIQXMMI Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar institutining ilmiy laboratoriyasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida tashqi magnit maydonlar va skalyar o'zaro ta'sirlarda ultrarelyativistik zarrachalarning paydo bo'lishini o'rganishda foydalanilgan (TIQXMMI Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar institutining 2025 yil 20 iyundagi 01/25-105-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, magnit maydonlar atrofida zarrachalarning shakllanish mexanizmlari modellashtirish natijalari orqali aniq tushuntirilishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 5 ta xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida taqdim etilgan va muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha olingan natijalarning asosiy mazmuni 15 ta ilmiy ishda bayon etilgan bo'lib, ulardan 8 tasi doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan xorijiy va milliy jurnallarda chop etilgan ilmiy maqolalardir.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tuzilishi kirish, to'rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 103 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining

ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr qilingan ishlar, dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Birinchi bob **“Galaktikalar to‘dolari bo‘yicha kuzatuvlar ma‘lumotlari haqida”** deb nomlanib, unda galaktikalar to‘dolari bo‘yicha kuzatuv ma‘lumotlarining qiyosiy tahlili berilgan, ularning alohida xususiyatlari ko‘rib chiqilgan, bu ob‘ektlar bo‘yicha asosiy kuzatuv ma‘lumotlari keltirilgan va galaktika to‘dalarining boylik muammosi hamda ularning kelib chiqish fizikasida mavjud muammolar ko‘rib chiqilgan.

“Galaktikalar boy to‘dalarining umumlashtirilgan katalogi va uning tahlili” deb nomlangan ikkinchi bobda galaktika to‘dolari bo‘yicha kuzatuv ma‘lumotlari natijalariga oid adabiyotlar tahlil qilingan. Galaktika to‘dolari fizikasidagi mavjud muammolar ko‘rib chiqilgan va ushbu ob‘ektlar bo‘yicha kuzatuv ma‘lumotlari tahlil qilingan. Dastlab dissertatsiya ishida foydalanilgan ma‘lumotlar bazalari hamda kataloglar haqida ma‘lumotlar batafsil berilgan. Kuzatuv ma‘lumotlari tahlili asosida 213 ta ob‘ektdan iborat galaktikalar boy to‘dalarining umumlashtirilgan katalogi tuzilgan. Katalog ob‘ektlarini tanlash uchun mezonlar ishlab chiqilgan: birinchidan, r_{200} radius (to‘dalarning o‘rtacha zichligi Koinotning kritik zichligidan 200 baravar katta bo‘lgan to‘da radiusi) doirasida to‘dalarning boylik darajasi 100 dan katta bo‘lishi kerak; ikkinchidan, ko‘rib chiqilayotgan to‘dadagi galaktikalarning taqsimoti sferik shaklga ega bo‘lishi kerak; uchinchidan, to‘dalar markazlarida galaktikalar kontsentratsiyasi zich bo‘lishi kerak.

Shuningdek, ushbu ob‘ektlarning massalari aniqlangan. Galaktika to‘dolari massalarining topilgan qiymatlari katalogga kiritilgan. Shuningdek, katalogda keltirilgan barcha parametrlar orasidagi korrelyatsiyalarni hisoblab chiqilgan. To‘daning massasi μ_{200} va boyligi R_L orasida korrelyatsiya aniqlangan, uning qiymati 0.712 tengligi topilgan hamda tegishli empirik munosabat quyidagi ko‘rinishga egaligi aniqlangan:

$$\lg\mu_{200} = 14.818 (\pm 0.026) + 0.029 (\pm 2 \times 10^{-4}) R_L. \quad (1)$$

To‘daning massasi μ_{200} va boyligi R_{L500} orasida hamda μ_{500} va boyligi R_{L500} orasida xuddi shunday o‘xshash bog‘liqlik korrelyatsiyasi 0.702 ga teng va unga mos keladigan empirik munosabat quyidagicha:

$$\lg\mu_{200} = 14.945 (\pm 0.018) + 0.002 (\pm 1.35 \times 10^{-4}) R_{L500}. \quad (2)$$

$$\lg\mu_{500} = 14.671 (\pm 0.016) + 0.003 (\pm 1.24 \times 10^{-4}) R_{L500}. \quad (3)$$

Shuningdek, to‘daning massasi μ_{500} va galaktikalar soni N_{500} orasidagi korrelyatsiya aniqlandi: 0.843 ga teng. Ushbu parametrlar orasidagi empirik bog‘liqlik ham topildi:

$$\lg\mu_{500} = 14.773 (\pm 0.024) + 0.004 (\pm 3.46 \times 10^{-4}) N_{500}. \quad (4)$$

Ko‘rinib turibdiki, galaktikalar soni qancha ko‘p bo‘lsa, to‘dalarning massasi shunchalik katta bo‘ladi, ya‘ni to‘dalar zichroq bo‘ladi.

“Konsentratsiya darajasi va anizotropiya parametri qiymatini hisoblash” deb nomlanuvchi uchinchi bobda galaktikalar to‘dalari uchun sirtiy zichlikni aniqlashning muammolari bo‘yicha tahlil natijalari keltirilgan. Dastlabki paragrafda galaktikalar to‘dalari uchun sirt zichlikni aniqlash metodikasi berilgan. Buning uchun SDSS ma’lumotlar bazasida berilgan tasvirlardan foydalanildi. Tasvir halqalarga bo‘lingan va har bir halqaning yuzasi topilgan hamda ularning bir xil bo‘lishi zarur. Tasvirda 20 ta halqa tanlangdi va sirtiy zichlik qiymatlarini hisoblandi.

To‘da markaziga nisbatan galaktikalar konsentratsiyasi darajasini ifodalovchi parametr qiymatlari kuzatuv ma’lumotlari bo‘yicha 40 ta to‘da uchun hisoblab topilgan. Sirtiy zichlik taqsimot funksiyasi $\sigma(r)$ ni ifodalovchi quyidagi formula orqali aniqlanuvchi model tanlab olindi:

$$\sigma(r, \gamma, r^*, \sigma_0) = \sigma_0 \left[1 + \left(\frac{r}{r^*} \right)^2 \right]^{-\gamma}, \quad (4)$$

bu yerda σ_0 , r^* , γ erkin parametrlar, ya’ni γ – to‘da markaziga nisbatan yulduzlar konsentratsiya darajasi bilan bog‘liq parametr, r^* - to‘da yadrosining radiusi r_c bilan bog‘liq kattalik va σ_0 – markazdagi ko‘rinma zichlik. Aniqlangan sirtiy zichlikdan foydalangan holda γ parametrning qiymatlari 40 ta to‘da uchun aniqlandi (1-jadval).

1-jadval. Galaktikalar to‘dalari modeli parametrlari va konsentratsiya darajasini hisoblash natijalari

No	Galaktika to‘dalarining identifikatori	F ₀	r [*]	γ
1	J001051.4+290940	155,6814	0,1931	0,2462
2	J002016.1+000446	78,4472	0,8172	0,3175
3	J002712.5-193045	85,6719	0,574	0,2415
4	J002800.9+244744	241,8503	0,231	0,3669
5	J004118.5+252609	72,5782	0,2149	0,1508
6	J004511.7+084111	40,9774	2,4684	0,3908
7	J023127.6+065856	82,7679	0,5312	0,2619
8	J023952.7-013419	386,835	0,1613	0,3569
9	J083057.3+655031	117,9669	0,4227	0,2607
10	J085007.9+360414	112,2458	1,1409	0,3528
11	J090912.7+105829	203,5664	0,1259	0,2804
12	J091609.0-002226	77,5699	1,4599	0,3187
13	J091753.4+514338	386,4694	0,1315	0,3351
14	J092048.3+302818	132,4687	0,1242	0,1712
15	J094951.8+170711	133,7621	0,514	0,2986
16	J100226.8+203102	109,7053	0,6505	0,2510
17	J105417.5+143904	160,7753	0,2526	0,2664
18	J111450.3-121351	171,6555	0,1563	0,2440
19	J112358.8+212850	83,036	0,5638	0,2263
20	J113553.9+400132	14,2845	2,1784	0,2540
21	J115235.4+371543	18,4877	0,1334	0,1006
22	J115914.9+494748	33,2696	0,4127	0,2469

23	J121218.5+273255	40,0439	0,6385	0,3299
24	J122902.5+473721	39,3388	0,2603	0,2649
25	J123048.9+103247	17,9791	2,1219	0,3066
26	J124932.5+495344	16,9474	0,054	0,0371
27	J130650.0+463333	20,964	2,5626	0,5735
28	J131129.5-012028	121,2828	1,0006	0,3661
29	J131505.2+514903	149,471	0,516	0,3095
30	J133238.4+503336	215,0104	0,1807	0,2719
31	J133520.1+410004	173,7122	0,1898	0,2133
32	J140102.1+025242	94,3957	1,1394	0,3554
33	J141424.1-002240	20,8051	0,2613	0,1289
34	J144431.8+311336	236,0683	0,0694	0,2307
35	J153940.5+342527	162,4453	0,248	0,2380
36	J155820.0+271400	221,4657	0,1008	0,2334
37	J160319.0+031645	104,5931	0,5564	0,2300
38	J164019.8+464242	371,6218	0,0326	0,2324
39	J164325.4+132236	132,0536	0,2691	0,2209
40	J212823.4+013536	99,4691	1,4662	0,3122

Ko‘rinib turibdiki, konsentratsiya darajasi qiymatlari (0.03; 0.58) intervalda yotadi.

Galaktikalar to‘dalari asosiy xarakteristikalarini bilan konsentratsiya darajasi γ ning turli xil bog‘lanishlari ko‘rib chiqildi. Hisoblangan korrelyatsiya koeffitsienti qiymatidan ma‘lum bo‘ldiki, konsentratsiya darajasi to‘dalarning ayrim xarakteristikalarini bilan chiziqli bog‘langan. Masalan, konsentratsiya darajasi γ to‘dagacha masofaga chiziqli ravishda bog‘liq (korrelyatsiya koeffitsient 0.61 teng):

$$\gamma = -0.197(\pm 0.101) + 0.345(\pm 0.076) \cdot r_{500} \quad (5)$$

To‘dalargacha masofa qanchalik katta bo‘lsa, konsentratsiya darajasi γ shunchalik kichik.

Shuningdek, konsentratsiya darajasi va to‘daning boylik darajasi orasida ham chiziqli bog‘lanish borligi (korrelyatsiya 0.59 ga teng) aniqlandi:

$$\gamma = 0.109(\pm 0.037) + 0.001(\pm 2.3 \cdot 10^{-4}) \cdot R_{L500}. \quad (6)$$

Ko‘rinib turibdiki, boylik daraja ortgan sari γ ning qiymati o‘sib boradi.

Konsentratsiya darajasining qizilga siljishga bog‘liqligi va ular orasidagi korrelyatsiya koeffitsienti $\rho=0.62$ ga tengligi aniqlandi. Bunga mos ravishda empirik formula quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\gamma = 0.142(\pm 0.029) + 0.474(\pm 0.104) \cdot z. \quad (7)$$

Ko‘rinib turibdiki, qizilga siljish qiymatining oshishi bilan γ ning ortishi, ya‘ni to‘dalar konsentratsiyasining asta-sekin kamayishi kuzatiladi. Shuni ta‘kidlash kerakki, γ ning radius (r_{200}) ga va to‘dalarning ko‘rinma kattaligiga nisbatan juda zaif bog‘liqligi mavjud. Bu holdagi korrelyatsiya koeffitsientlari mos ravishda 0,19 va 0,22 ni tashkil qiladi.

Bundan tashqari, galaktika to‘dalarining aloxida xarakteristikalarining ushbu ob‘ektlarning evolyutsiyasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan dinamik

parametrlari bilan bog‘liqligini izlash zarurati qayd etilgan. Bu parametrlardan biri tezliklar anizotropiya parametri $A = \frac{2\overline{\Pi^2} - \overline{T^2}}{\overline{\Pi^2}}$ bo‘lib, bu yerda $\overline{\Pi^2}$ va $\overline{T^2}$ mos ravishda radial va ko‘ndalang (transversal) yo‘nalishdagi tezlik dispersiyasidir. Ta’kidlag kerakki, tezliklar anizotropiya parametri, birinchidan, kuzatuv ma’lumotlarini nazariy hisob-kitoblar bilan bog‘laydi, ikkinchidan, uning qiymati evolyutsiya bosqichini taxmin qilish imkonini beradi. Shuning uchun biz 40 ta galaktika to‘dasi uchun sirt zichlik taqsimoti bo‘yicha kuzatuv ma’lumotlaridan foydalandik. Quyida 2-jadvalda galaktika to‘dalarining asosiy xarakteristikalar va tezliklar anizotropiya parametrining hisoblab topilgan qiymatlari keltirilgan.

2-jadval. Galaktika to‘dalari uchun asosiy fizik xarakteristikalar va tezliklar anizotropiya qiymatlari

No	Galaktika to‘dalarining identifikatori	A	No	Galaktika to‘dalarining identifikatori	A
1	J001051.4+290940	0,08	21	J115235.4+371543	0,08
2	J002016.1+000446	0,00	22	J115914.9+494748	1,36
3	J002712.5-193045	0,88	23	J121218.5+273255	0,00
4	J002800.9+244744	1,50	24	J122902.5+473721	0,00
5	J004118.5+252609	0,60	25	J123048.9+103247	0,00
6	J004511.7+084111	0,48	26	J124932.5+495344	0,00
7	J023127.6+065856	1,12	27	J130650.0+463333	0,00
8	J023952.7-013419	1,44	28	J131129.5-012028	0,84
9	J083057.3+655031	0,88	29	J131505.2+514903	1,04
10	J085007.9+360414	0,72	30	J133238.4+503336	1,12
11	J090912.7+105829	1,24	31	J133520.1+410004	0,80
12	J091609.0-002226	0,56	32	J140102.1+025242	0,72
13	J091753.4+514338	1,32	33	J141424.1-002240	0,16
14	J092048.3+302818	0,72	34	J144431.8+311336	1,00
15	J094951.8+170711	0,92	35	J153940.5+342527	0,96
16	J100226.8+203102	0,76	36	J155820.0+271400	0,20
17	J105417.5+143904	1,00	37	J160319.0+031645	0,84
18	J111450.3-121351	1,08	38	J164019.8+464242	1,00
19	J112358.8+212850	0,96	39	J164325.4+132236	0,00
20	J113553.9+400132	0,00	40	J212823.4+013536	0,80

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 10 ta galaktika to‘dasi nolga yaqin anizotropiya parametri qiymatlariga ega, ya’ni to‘dalarning 25 foizi sferik tezliklar taqsimotiga ega hamda evolyutsiyaning oxirgi bosqichida bo‘lishi mumkin. 9 ta to‘da uchun tezliklar anizotropiya parametrining qiymatlari 1 dan katta. Shuning uchun bu to‘dalardagi tezliklar taqsimoti radial cho‘zilgan holatga to‘g‘ri keladi, bu ularning regulyar maydondagi statsionar bo‘lmaganligi bilan bog‘liq bo‘ladi.

So‘ng, tezlik anizotropiya parametrining qiymatlarini taqqoslab, biz ularni shartli ravishda uchta sinfga bo‘lish mumkinligini ko‘ratdik:

Sinflar	A	To‘dalar soni
1	$0 \leq A \leq 0.5$	13
2	$0.5 < A \leq 1$	18
3	$1 < A \leq 1.5$	9

Ta’kidlab o‘tish kerakki, $1.50 < A < 2$ oralig‘ida bitta ham to‘da mavjud emas, bu kekusida galaktika to‘dalarining ko‘rinma zichligi bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlarni izlashni talab etadi.

Shuningdek, biz anizotropiya parametrining boshqa fizik xususiyatlar bo‘yicha korrelyatsiya koeffitsienti qiymatlarini hisobladik va tegishli empirik formulalarni topdik. Ma’lumotlar tahlilidan anizotropiya parametri va to‘dadagi galaktikalar soni orasida empirik munosabat mavjudligini aniqladik:

$$A = -0.499(\pm 0.321) + 0.009(\pm 0.002) \cdot N_{200} \quad (8)$$

$$A = -0.503(\pm 0.291) + 0.013(\pm 0.003) \cdot N_{500} \quad (9)$$

Ko‘rinib turibdiki, anizotropiya parametri qiymatining oshishi bilan to‘dalardagi galaktikalar soni ham ortadi. Bunda korrelyatsiya koeffitsienti $\rho = 0,54$ ga teng.

Biz tomondan anizotropiya parametri va boylik daraja orasida yaxshi korrelyatsiya ($\rho = 0,57$ va $0,68$) va quyidagi statistik formulalar topildi:

$$A = -0.602(\pm 0.314) + 0.008(\pm 0.002) \cdot R_L \quad (10)$$

$$A = -0.587(\pm 0.291) + 0.008(\pm 0.002) \cdot R_{L500} \quad (11)$$

Empirik bog‘liqlik (10 va (11) lardan ko‘rinib turibdiki, to‘daning boylik darajasining oshishi anizotropiya parametrining qiymatini ham oshiradi.

Shuningdek, galaktika to‘dalarining konsentratsiya darajasi va tezliklar anizotropiya parametri orasidagi bog‘liqlikni ham ko‘rib chiqdik. Bu holatda juda yaxshi korrelyatsiya topildi ($\rho = 0,796$) va empirik bog‘liqlik qayd etildi:

$$A = 0.097(\pm 0.156) + 3.462(\pm 0.588) \cdot \gamma \quad (12)$$

Formula (12) dan ko‘rinib turibdiki, konsentratsiya darajasi qiymatining oshishi bilan tezliklarning anizotropiya parametri ham ortadi.


“Galaktikalar to‘dalari evolyusiyasini modellashtirish” nomli to‘rtinchi bob avvalgi bobning mantiqiy davomi bo‘lib, galaktikalar to‘dalarining dinamik evolyusiyasini sonli modellashtirishga bag‘ishlangan. Dastlabki paragrafda galaktikalar to‘dalari evolyusiyasini modellashtirishning nazariy masalalari qaralgan. Bunda foydalaniladigan qo‘llaniladigan zamonaviy usullardan bo‘lgan N-ta jismni modellashtirish haqida gap yuritilgan. Shuni hisobga olgan holda, bu bobda galaktikalar to‘dalari evolyusiyasini o‘rganishning asosiy usullari, masalan, gidrodinamik usul, N-ta jism tenglamalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri integrallash usuli va Monte-Karlo usuli keltirilgan. Galaktika to‘dalarini o‘rganish uchun biz uning evolyusiyasini sonli modellashtirish orqali ko‘rib chiqdik. Buning uchun N-ta jismlarning harakat tenglamalarini Aarset dasturi yordamida bevosita integrallash usulidan foydalandik.

Ishda ikkita modelni ko‘rib chiqdik, ulardagi jismlar soni mos ravishda 500 va 1000. Birinchi modelda sistema sferik bir jinsli, izotrop taqsimotga ega.

Koordinatalar va tezliklar tasodifiy sonlar generatori yordamida olinadi. Barcha jismlarning massalari bir xil. Ikkinchi modelda zarrachalar taqsimoti Plammer modeliga bo‘ysunadi.

Hisoblash natijalari grafiklar shaklida taqdim etilgan. Har bir model uchun sistemadagi jismlarning joylashuvidagi o‘zgarishlar va turli vaqt momentlari uchun tezliklarning taqsimlanishi berilgan.


1-model (birjinsli model). Ushbu modelda sistema zichligi masofaga bog‘liq bo‘lmagan vaqtning boshlang‘ich momentida sistemadagi jismlarning fazaviy taqsimoti olindi.



1-rasm. Bir jinsli va izotrop model uchun sonli modellashtirish natijalari (turli vaqt momentida markaziy soha)

1-rasmda turli vaqt momentlari uchun jismlar koordinatalarining proeksiyasi ko‘rsatilgan. Rasmdan ko‘rinib turibdiki, evolyusiyaning dastlabki bosqichida sistema kollapslanadi: markazda zich yadro hosil bo‘ladi va uning atrofida qobiq hosil bo‘ladi. Keyingi bosqichlarda yadro konsentratsiyasi pasayadi va u cho‘zila boshlaydi, sistemaning umumiy o‘lchamlari kattalasha boshlaydi. Sistema jismlarining taqsimlanishi taxminan Gauss taqsimotiga bo‘ysunadi va u evolyusiya oxirigacha deyarli o‘zgarishsiz qoladi.

2-chi model (Plammer modeli). Hisob-kitoblar natijalari 2-rasmda ko‘rsatilgan.



2-rasm. Plammer model uchun sonli modellashtirish natijalari (turli vaqt momentida markaziy soha)

Vaqtning dastlabki momentida sistema jismlarining zichligi masofa kvadratiga teskari proporsionaldir. 2-modelda sistema evolyusiyaning dastlabki bosqichida ham kollapslanadi: sistema biroz siqiladi va markazda ixcham yadro hosil bo'ladi. Ushbu modelning birinchisidan farqi shundaki, yadro atrofida ixcham galo paydo bo'ladi: a) yadro o'lchamlari juda katta; b) galo tarkibi biroz zich va butun sistema simmetriyaga ega. Keyinchalik sistema kengayishni boshlaydi va yadro ordinata o'qiga nisbatan cho'zila boshlaydi.

XULOSA

Ushbu dissertatsiya ishini bajarish davomida erishilgan quyidagi asosiy natijalar va xulosalar olindi:

1. Galaktikalarning juda boy to'dalarini kuzatuv ma'lumotlari asosida kompleks o'rganishga qaratilgan fundamental tadqiqotlar amalga oshirildi. Olingan natijalar asosida galaktikalar boy to'dalarining xususiyatlari, ularning strukturaviy parametrlari hamda dinamik evolyusiyasi haqidagi tasavvurlarni kengaytiruvchi ilmiy dalillar taqdim etildi.
2. Galaktikalar boy to'dalarining 213 obyektini qamrab olgan maxsus katalogi ular uchun empirik asosga ega bo'lgan muhim ma'lumotlar bazasini yaratdi. Ushbu katalog galaktikalar boy to'dalarining massasi, boylik darajasi,

strukturaviy yaxlitligi va fazoviy taqsimotining tavsifini olish imkonini berib, ular orasida chiziqli bog‘lanishlar mavjudligini ko‘rsatdi. Xususan, boyluk darajasi qiymatining ortishi massasining chiziqli ravishda ortishi ko‘rsatildi.

3. Galaktikalar boy to‘dalarining fazodagi tasimotining a’lum bir hududda to‘planishi ularning katta tuzilmalar bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi. Sirtiy zichlik profillarining taqsimoti va konsentratsiya parametrining kuzatuvga asoslangan holda aniqlanishi esa to‘dalar konsentratsiya darajasini aniq miqdoriy tavsiflash imkonini berdi. Ushbu parametrning to‘dalar fizik kattalıkları bilan empirik bog‘lanishi ular ichki dinamikasi va tuzilmaviy evolyusiyasi haqida yangi ilmiy dalillar taqdim etdi.
4. To‘dalar dinamik xususiyatlari tahlili galaktikalar boy to‘dalari kinematik jihatdan bir xil emasligini ko‘rsatdi: tezlik anizotropiyasining topilgan qiymatlari ular uchta asosiy kinematik guruhga ajralishini tasdiqladi. Anizotropiya parametri nolga yaqin qiymatlarga ega bo‘lgan to‘dalar nisbatan yuqori ulushga egaligi, ular o‘z navbatida evolyusiyaning oxirgi bosqichiga yetib kelgan obyektlar ekanligini ko‘rsatdi.
5. Sonli modellashtirish natijalari kuzatuvdan olingan xulosalarni nazariy jihatdan mosligi ko‘rsatildi: to‘da yadrosining vaqt o‘tishi bilan ixcham holatdan cho‘ziq konfiguratsiyaga o‘tishi, galo qismining esa kengayishi galaktikalar to‘dalari evolyusiyasining murakkab, ko‘p bosqichli tabiatga egaligini ko‘rsatdi. Ayrim holatlarda butun sistemaning cho‘ziqlikdan sferik simmetriyaga qaytish jarayoni to‘dalar dinamik barqarorlashuviga xos bo‘lgan xususiyat sifatida kuzatildi.
6. Olingan natijalar galaktikalar juda boy to‘dalarining tuzilmaviy va dinamik xususiyatlari haqidagi empirik va nazariy tasavvurlarni sezilarli darajada boyitdi. Tadqiqot natijalari kelgusida galaktikalar to‘dalarining kosmologik ahamiyatini o‘rganish, ularning shakllanish va evolyusiyalanish mexanizmlarini aniqlashtirish, shuningdek, Koinotning katta masshtabli tuzilmalarining evolyutsiyasi haqidagi muhim ilmiy muammolarni yechishda asos bo‘lib xizmat qilishi aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.FM.01.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
УЗБЕКИСТАНА**

**ЧИРЧИКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ОТОЖАНОВА НИЛУФАР БАХТИЯРОВНА

**ФИЗИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА БОГАТЫХ СКОПЛЕНИЙ ГАЛАКТИК:
АНАЛИЗ ДАННЫХ НАБЛЮДЕНИЙ И РЕЗУЛЬТАТЫ
МОДЕЛИРОВАНИЯ**

01.03.02 – Физика космоса и астрофизика

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) физико-математических наук

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) физико-математических наук зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министре высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за № В2025.3.PhD/FM1361.

Диссертация выполнена в Чирчикском государственном педагогическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.nuu.uz) и на Информационно-образовательном портале "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: Кутлимуратов Сардор Шарипбаевич
доктор философии педагогических наук, доцент

Официальные оппоненты: Райимбаев Джавланбек Ражапбаевич
доктор физико-математических наук, профессор

Бурхонов Отабек Анваржонович
кандидат физико-математических наук, старший научный сотрудник

Ведущая организация: Самаркандский государственный университет

Защита диссертации состоится "21" 04 2026 г. в 15⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.FM.01.05 при Национальном университете Узбекистана (Адрес: 100174, г.Ташкент, ул. Университетская, 4; Тел.: (+99871) 227-12-24; факс (+99871) 246-53-21, 246-02-24, электронная почта: pauka@nuu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (регистрационный номер 61). (Адрес: 100174, г.Ташкент, ул. Университетская, 4; Тел.: (+99871) 227-12-24; факс (+99871) 246-53-21, 246-02-24, электронная почта: pauka@nuu.uz).

Автореферат диссертации разослан "3" 04 2026 г.
(Реестр протокола рассылки № 4 от "3" 04 2026 г.)



Handwritten signature in blue ink.

С.Н. Нуритдинов

Председатель научного совета по присуждению ученой степени, доктор физико-математических наук, профессор

Ф.У. Ботиров

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по физико-математическим наукам

И.У. Таджибаев

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор физико-математических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ **(аннотация докторской диссертации(PhD))**

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире богатые скопления галактик считаются одним из уникальных объектов Вселенной, и этим объектам придается особое значение как средству решения таких задач, как изучение крупномасштабной структуры, состава материи и эволюции Вселенной. В настоящее время в развитых странах быстро развиваются международные астрономические программы, направленные на изучение богатых скоплений галактик, и в результате работы космических телескопов и получения крупномасштабных наблюдательных данных создаются их современные каталоги. Число идентифицированных богатых скоплений галактик значительно возросло в последние годы, и в настоящее время известно более 168000 таких скоплений, и их число ежегодно увеличивается примерно на 4000. Подавляющее большинство богатых скоплений в новых каталогах являются ранее неизвестными объектами. В этой связи особое внимание уделяется объяснению физики богатых скоплений галактик посредством наблюдений, сравнению альтернативных сценариев их космологического происхождения и численному моделированию их эволюции.

В мире проводятся важные научные исследования по поиску новых скоплений галактик, проведению их фотометрии, определению доли темной материи и созданию каталогов. В этом направлении приоритетными задачами являются наблюдение за богатыми скоплениями галактик с помощью космических телескопов, что позволит определить крупномасштабную структуру Вселенной, наблюдать за высокоэнергетическими физическими процессами в скоплениях, изучать темную материю, определять космологические параметры, определять скорость скоплений, выявлять наличие черной дыры в центре скопления, делить скопления на специальные классы, изучать близлежащие скопления и определять их динамическую массу. Одновременно с этим неотложными задачами считаются создание специальных каталогов богатых скоплений галактик, проведение статистического анализа, изучение их основных физических параметров, определение эмпирических связей между ними и моделирование их динамической эволюции.

В Республике также реализуется комплекс широкомасштабных мер по развитию фундаментальных наук, в том числе приоритетных направлений современной астрофизики. В Стратегии развития Нового Узбекистана¹ на 2022-2026 годы определены важные задачи по развитию науки в стране в области фундаментальных исследований. Реализация этих задач, в частности, связана с развитием космических исследований и технологий, а

¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы».

